



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT
SHAHRINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-mart*





TOSHKENT SHAHRINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahrida 2024- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **3 058,4** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **17,6** ming kishiga yoki **100,6 %** ga ko'paydi.

Doimiy aholi soni

3 058,4 ming
kishi

Tabiiy o'sish


+12,7 ming
kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1-aprel holatiga

Erkaklar

49,1 %



Ayollar


50,9 %



1500,7 ming kishi

1557,7 ming kishi

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi , ming kishi



Toshkent shahri bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2024- yil 1-aprel holatiga (foizda)

15,7 %

Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar



2024- yil 1-aprel holatiga ko'ra, Toshkent shahar doimiy aholisi sonining **28,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **15,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1-aprel holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	2978,9	3058,4	102,7
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	295,3	300,3	101,7
Bektemir	56,9	61,6	108,3
Yunusobod	369,6	378,3	102,4
Mirzo-Ulug'bek	325,1	332,3	102,2
Mirobod	150,2	152,8	101,7
Shayxontohur	361,9	366,4	101,2
Olmazor	397,2	406,1	102,2
Sergeli	163,8	169,7	103,6
Yakkasaroy	128,6	134,7	104,7
Yashnobod	293,0	302,9	103,4
Yangihayot	164,4	177,7	108,1
Chilonzor	272,9	275,6	101,0

*Toshkent shahri hududi Toshkent viloyati hududi hisobidan kengayishi natijasida aholi sonida sezilarli o'zgarish bo'lgan.

Tug'ilganlar soni

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

(Qiz bola):

8,2 ming kishi

(O'g'il bola):


8,4 ming kishi



2024- yilning yanvar-mart oylarida **16,6** mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar **50,6 %** ni, qiz bolalar **49,4 %** ni tashkil etadi.

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024 yil yanvar-mart



2024- yilning yanvar - mart oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – **97,4 %**
- 2 nafar – **2,5 %**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1 %**

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

yanvar-mart holatiga, kishi

	2023- yil	2024- yil	O’sish sur’ati, % da
Toshkent shahar	19074	16640	87,2
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	2205	1713	77,7
Bektemir	799	739	92,5
Yunusobod	2500	2111	84,4
Mirzo-Ulug‘bek	1661	1381	83,1
Mirobod	720	602	83,6
Shayxontohur	2120	1775	83,7
Olmazor	2244	2184	97,3
Sergeli	609	645	105,3
Yakkasaroy	1629	1364	83,7
Yashnobod	1336	1432	107,2
Yangihayot	1591	1348	84,7
Chilonzor	1660	1346	81,1

2024- yilning yanvar-mart oylarida **16,6** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **21,9** promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan minus **4,2** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-mart oylarida **26,1** promille bo'lgan).




VAFOT ETGANLAR


2024- yilning yanvar-mart oylarida **3,9** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **5,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,6** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,5** promille).

O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart, kishi




Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



2024- yilning yanvar - mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **56,0** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **14,8** % i – o’simtalardan, **7,6** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **4,3** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,5** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **3,4** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **9,4** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR

2024- yilning yanvar-mart oylarida **3,5** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **0,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,6** promille bo‘lgan).




NIKOHDAN AJRALISHLAR



2024- yil yanvar-mart oylarida **1,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **2,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar- mart oylarida **2,1** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart



2024- yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida jami nikohdan ajrashganlarning **41,6** % i farzandsiz, **31,1** % i bitta farzand bilan va **27,3** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2024- yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahar bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **22 026** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **17 185** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi **4841** kishini tashkil etadi. 2023- yilning mos davrida **6762** kishi bo'lgan.

Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart, (ming kishi)




2024- yilning yanvar-mart oylarida **22,0** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **29,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **1,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **30,4** promille bo'lган).

Toshkent shahar bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart, (ming kishi)

2024- yilning yanvar-mart oylarida **17,2** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **22,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **1,6** promillega ko'paygani kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **21,1** promille bo'lган).



Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıladı.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar



organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalari qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalari qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtaсидagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 71 203-88-23, 48